



Talaba yoshlar bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda freelanser bo'lishning foydali jihatlari

M.S.Salayeva

Urganch davlat universiteti professori

N.Akimova

Urganch davlat universiteti tyutori

Annotatsiya: Maqolada talaba yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda freelanserlikni qo'llash va yoshlarni ham ta'lim ham kasb egasi bo'lishiga vaqtning to'g'ri taqsimlanishi haqida bayon etilgan. Umuman olganda yoshlarning qiziqishi va talablaridan kelib chiqib, bo'sh vaqtlarini qiziqarli va daromadli bo'lishini ta'minlash. Undan tashqari freelanserlikni tanlashning asosiy sabablari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Talabalar, bo'sh vaqt, freelance, ta'lim, freelancerlik, tarbiya.

Kirish. Bugungi kunda "frilans"¹ so'zi tobora tez-tez uchramoqda. Uni deyarli barcha xodimlar yig'ilishida, ayniqsa yoshlardan iboratlarida, shuningdek kompaniya, tashkilot va maktab o'quvchilari, talabalar orasida ham quloqqa chalinib qoladi.

Bilmaydiganlar uchun frilans - bu odamni jismoniy va psixologik jihatdan cheklamaydigan o'ziga xos onlayn ish platformasi. Frilanser - mustaqil mutaxassis bo'lib, u dasturchi, kopirayter, dizayner va hatto advokat bo'lishi mumkin.

¹ <https://it-park.uz>



Freelanserlar va ularning xizmatlarini izlaganlar uchun ko‘plab veb-saytlar va platformalar mavjud. Oddiy til bilan tushuntirganda, ish beruvchi ish taklif qiladi, frilanser uni qilish yoki qilmaslikka qaror qiladi. Yoki frilanser o‘z xizmatini taklif qiladi va ish beruvchi uning xizmatidan foydalanish yoki foydalanmaslikka qaror qiladi.

²O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Vazirlar Mahkamasi qarorida zamonaviy kasblarga o‘qitish, ular o‘rtasida frilanserlik faoliyatini keng rivojlantirish to‘g‘risida joriy qilish haqida yozilgan.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2022 - yilning 22 aprel kuni aholi bandligini ta'minlash va daromadi keskin kamayishining oldini olish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida asosiy ish joyidan ajralib qolgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularni mavsumiy ishlarga jalb qilish orqali bandligini ta'minlash masalasi muhokama etilar ekan, mutasaddilarga frilanserlik kabi faoliyat turlari uchun imtiyoz va preferentsiyalar berish, yoshlarni internetdan foydalanib, aqliy mehnat orqali daromad topishga o'rgatish, sohani rivojlantirish uchun xorijda ommabop bo'lgan to'lov tizimlarini yo'lga qo'yish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Ko‘p hollarda frilans faoliyati masofadan turib amalga oshiriladi va bu bilan ko‘pchilikning hayoti yengillashadu, zero, har kuni soat 09:00 dan 18:00 gacha ofisda o‘tirib yo‘l va tushlikka mablag‘ni sarflashga hokat qolmaydi. Istagan joyingda, istagan ishingni istalgan muddatga bajar va buning uchun semga to‘lashadi.

O‘zbekistonda frilans jadal rivojlanmoqda. Albatta, hozircha mamlakatimiz aholisi orasida frilanslik xizmatlari juda mashhur emas, lekin allaqachon professional frilanserlar paydo bo‘lib ulgurgan.

² O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.09.2016 yildagi O‘RQ-406-son



Freelanser³ (free — bo'sh; lancer — ishchi) — bunday nom bilan o'rta asrlardagi yollanma jangchilarni atashgan, ular yuk tashishgan, kerakli odamlarni qo'riqlagan, janglarda qatnashgan va ularni hammasi uchun yahshigina pul olgan.

Frilanserlar, kimning puli ko'p bo'lsa, o'sha tomon uchun jang qilganlar. Hozirgi zamonaviy «bo'sh ishchilar» biz aytgan ota-bobolaridan farqli o'laroq, jang uchun klaviatura, sichqoncha, planshet va internetga o'xshashlarni ishlatishadi.

Frilanser ish beruvchining doimiy ishchi-xodimi sanalmaydi, bir martalik vazifalarni bajaradi, evaziga kelishilgan pulini oladi. Buyurtmachi (ish beruvchi) bilan masofadan turib bo'glaniladi, ko'p hollarda ijtimoiy tarmoqlar orqali, elektron pochta, Skype, whatsapp, telegram va boshqa xokazo.

Frilanserlarning ish joyini oladigan bo'lsak, bizning vaqtda bu bozorga o'xshash joyni esga soladi, buning asosi esa birjalar bo'lib, u yerda ish beruvchilar o'zlarining takliflarini (ishlari, vazifalari) e'lon qilishadi, frilanserlar esa takliflar orasidan o'zlariga maqul bo'lgan ishni qidirib topadilar.

Agar ikkala taraf ham barcha ishga oid savollar bo'yicha bitta bitimga kela olishgan bo'lsa, u holda topshiriqni bajarishga kirishish mumkin. Agarda yo'q bo'lsa, har doim taklifni inkor qilish imkoniyati mavjud. Ishonavering, Siz qandaydir ofisda oylikka ishlaydigan oddiy hodim bo'lsangiz, bunday taklifdan so'ng narsalaringizni yig'ishtirgan bo'lar edingiz. Albatta, bu misolimiz ancha qisqartirilgan va kasbning barcha afzalliklari haqida yoritilmagan. Yollanma ishchilarning hayoti har kuni ham quvonchli bo'lavermaydi, bir xil kamchiliklar bor — masalan, buyurtma qidirish, boshqa raqib ishchilar oldida pozitsiyani ushlab qolish uchun, o'z mexnatini narxini pastga tushirib aytish va boshqalar. Lekin kelinglar bularga chalg'imaglikda, frilanserni portretini oxirigacha chizib qo'yaylik.

Bu yerda eng foydali kasblar ro'yxatini keltiramiz, ularni bilgan odam frilanserlik qila oladi:

- Dasturchi (IT)

³ <https://bilimdonlar.com>



- Dizayner (web-dizayn, illyustratsiya)
- Kopirayter (kopirayt, rerayt, tarjima qilish)
- SEO-mutaxassis (saytlarni yurgazish)
- 3D-modellashtirish bo'yicha mutaxassislar
- Poligrafiya maxsulotlari bo'yicha verstalshik
- Marketolog (reklamachi)
- Injener, arxitektor
- Outsorser, konsultant, kouch (biznes trener)
- Fotograf, illyustrator

Bu kasblardan ko'plari internetga bog'liq bo'lgani uchun, ko'p odamlar, frilanserlar faqat internetda ishlaydi deb o'ylashadi, lekin bunday emas. Masalan, uyingizga kelib, bollaringizga matematika yoki ingliz tilidan dars berib ketadigan o'qituvchi ham frilanser hisoblanadi. Elektrik, santexnik, svarshik — bu yigitlar ham hususiy vaziflar bajarish orqali pul topishlari mumkin.

Frilanser bu — shtatda bo'lmagan, rasmiy ravishda xodim sanalmaydigan ishchidir. Xozirgi kunda ularning davrasi nafaqat internetda, balki hayotimizda ham kengayib bormoqda, shunday bo'lsa ham, ko'pgina odamlar «frilans» haqida gapirganda, internetda masofadan turib ishlashni nazarda tutishadi.

O'ziga maqul bo'lgan ish vaqtini tanlash. Qanday grafik bo'yicha ishlash, buni faqat o'zingiz hal qilasiz. Tushlik va tanaffus vaqti — bularni vaqtini ham o'zingiz belgilaysiz. Ish planini bajarilgan yoki bajarilmagani haqida hisobot topshirish ham talab etilmaydi. Bundan tashqari, ish vaqtini qaytadan bo'lib chiqish mumkin.

Talabalarni bo'sh vati uchun ayni muddao.



Cho'ntak uchun sezilarli foyda. Ekspertlarning izlanishlari shuni ko'rsatdiki, davlat korxonasi yoki firmalardagi ishchilarning o'rtacha oyligi, frilans ishchilarining daromadidan ancha kamroq ekan.

Buning sababi shundaki, «erkin ijodkor» o'z foydasini birovlar bo'lishishi shart emas. Menedjerlar, marketologlar, xatto buxgalterlar bilan ham... Hech kim bilan! Siz o'z mexnatingiz bilan ishlab topgan pulingiz, Siznikiligicha qoladi, ularga yana kimdir sherik chiqa olmaydi.

Ko'p soxalar bo'yicha ishlash. Ish beruvchi Sizdan hech qachon diplom so'ramaydi, attestat yoki har xil qog'ozbozliklar — unga faqat Sizning bilimingiz va maxoratingiz kerak. Shuning uchun bir soxadan ikkinchisiga o'tib ishlab ketish, ko'p vaqt talab etmaydi. Bugun Siz yahshi dizaynersiz, lekin bu ishda bezor bo'ldingizmi? Muammo yo'q — marketolog bo'lib ishlashingiz mumkin.

Vaqtni va pulni tejash. Bir o'ylab ko'ringa, har kuni uyingizdan ishgacha borish uchun qancha pul va vaqt sarflaysiz? Bir qarashda avtobus, metro, taksi va boshqalarga ishlatadigan yo'lkirangiz arzimagan pul bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin vaqt o'tgan sari ular yig'ilib ancha pulni tashkil etishi, bu pulga esa birorta davlatga borib dam olib kelishingiz mumkin.

O'z oilangiz bilan ko'proq vaqt o'tkazish imkoniyati. Hech qayerga borish shart emas, ish vaqtingiz doim uydasiz, albatta tabiat qo'ynida noutbuckingiz bilan o'tirishni yahshi ko'rmasangiz. Istagan vaqtingiz uydagilarga ko'maklashishingiz, kinoga tushishingiz yoki bolalarni parkga olib borishingiz mumkin. Eng muximi Sizga jim-jit ish o'rni va hayollaringiz jamlangan bo'lib ishlashga sharoit yaratib berishsa bo'lgani.

Xulosa

Bo'sh vaqt bu imkoniyat, undan samarali foydalanish lozim Tashkil etilayotgan loyihalar yoshlarning jismoniy, ijodiy, psixologik, ilmiy va aqliy jihatdan yetuk bo'lishlariga zamin yaratmoqda. Xususan, insonning jismoniy tetik va sog'lom bo'lishi uchun mahoratli trener va mutaxassislar tomonidan har kuni ertalabki badantarbiya mashg'ulotlari tashkil



etilmoqda. Fitnes mashg'ulotlari, harbiy tayyorgarlik jismoniy mashqlari, profilaktika uchun nafas olish mashqlari, yoga mashg'ulotlari, sport gimnastikasi, halqa (obruv) yoki arqon yordamidagi jismoniy mashqlar shular jumlasidandir.

Shuningdek, ingliz tilidan IELTS kurslariga tayyorgarlik bo'yicha ham onlayn darslar tashkil etilgan. Ushbu kurslarga nafaqat o'zbek yoshlarining balki universitetda tahsil olayotgan xorijiy talabalarning ham qiziqishlari katta.

Yoshlarning ijodiy qiziqishlarini inobatga olgan holda "tasviriy va amaliy san'at bo'yicha talabalar turar joyi yoshlari uchun masofa saqlagan holda hamda boshqa hududlardagi talabalar uchun onlayn tarzda mahorat darslari tashkil etilmoqda. Bular bilan birgalikda, *psixologik treninglar ham muntazam tashkil etib kelinmoqda. Jumladan, "Stressni boshqarish", "Yoshlarda liderlikni shakllantirish", "Ijobiy motivatsiyani shakllantirish usullari"* bo'yicha yetuk psixologlar tomonidan mahorat darslari tashkil etilmoqda.

Undan tashqari talabalarning bo'sh vaqtida frilanserlik eng yaxshi yechim deb hisoblanadi. Universitetdagi kompyuterlar bilan ta'minlangan honalarda freelancerlik bilan shug'ullangan yoshlar albatta yod g'oyalarga ishonib ketishmaydi va jamiyatda o'z o'rnini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI TO'G'RISIDA O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.09.2016 yildagi O'RQ-406-son.
2. <https://it-park.uz>
3. <https://bilimdonlar.com>